



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI


QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH

**Davlat-xususiy sherikchilik investitsiyaviy mablag'larini shakllantirishda
risklar va ularni pasaytirish omillari**

Hozirgi kunda ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda DXSh tizimi xalqaro amaliyotda faol qo'llanilmoqda va o'zining qator afzalliklari bilan investitsion jarayonlarning alohida yo'nalishi sifatida tobora kengayib bormoqda. DXSh davlat va xususiy sektorning hamkorlikdagi o'zaro manfaatli faoliyatini namoyon etishi bilan birga bozor munosabatlarining boshqa yo'nalishlari singari bu soha ham turli risk va kutilmagan yo'qotishlardan holi emas.

Umuman olganda, DXSh infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. DXSh ham davlat ham xususiy sektorga ijtimoiy yoki iqtisodiy manfaat berishi bilan birga risklarni samarali boshqarish va taqsimlash vazifalarini qo'yadi. DXSh tizimida risklarni samarali boshqarishda davlat sherigi va xususiy sherik bir-birlari uchun riskning oldini olishga xizmat qilishi ham mumkin yoki aksincha risklarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Bu holatlar ularning faoliyati maqsadlari, malakasi va biznes etikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu borada

Rossiyalik yetuk iqtisodchi olim Yu.A.Xalimovskiyning ushbu fikrlarini keltirib o‘tish joiz deb topdik, ya’ni “DXShning asosiy mohiyati bu davlat va xususiy sektorning o‘zaro hamkorligigina emas, shu bilan birga risklarni samarali taqsimlash hamda xususiy sektorning ayrim davlat funksiyalarini amalga oshirishda va xususiy biznes uchun unchalik taalluqli bo‘lmagan ijtimoiy vazifalarni hal qilishda bilvosita ishtirok etishidan iboratdir”¹.



1-rasm. DXSh loyahasining risklarini rejalashtirish²

DXSh loyihalarini amalga oshirishda risklarni to‘liqroq tushunish va ularning xususiyatlarini tahlil qilishda risklarni guruhlashtirgan holda turlarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Aksariyat olimlar va amaliyotchilar risklarni quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi: “siyosiy va huquqiy risklar”, “texnik risklar”, “tjorat risklari”. Shuningdek, iqtisodiy va moliyaviy risklar alohida guruhni tashkil etadi. Iqtisodiy risklar DXSh loyhasini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan konyunkturaviy risklarni o‘z ichiga oladi. Bular iqtisodiy o‘sisdagi sekinlashuv, inflyatsiya, foiz va valyuta kurslari risklari. Ushbu bobning alohida qismida ushbu risklarni batafsilroq ko‘rib chiqamiz. Moliyaviy

¹ Халимовский Ю.А. “Концессионное соглашение: риски, связанные с составом объекта, и равное положение сторон”// Электронный ресурс // <https://zakon.ru/halimovskiy>. 22.11.2017.

² Кондратьева У.Д. «Планирование рисков реализации проектов государственно-частного партнерства», Управленческое консультирование. №6. 2015, стр. 205-215.

risklar DXSh loyihalarining ajralmas qismi hisoblanib, ular qator siyosiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa omillar ta'siri ostida shakllanadi³.

DXSh loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va risklarni kamaytirishda loyiha bilan bog'liq risklarni rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Risklarning qanchalik aniq rejalashtirilishi shunchalik yo'qotishlarni oldini olishga xizmat qiladi.

DXSh loyihalaridagi risklarni klassifikatsiya qilish va baholash nafaqat DXShning mohiyatini kengroq ochib beradi, balki uning samaradorligini oshirish, loyihalarni muvaffaqiyatli boshqarish va amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Odatda, risklarni aniqlash va boshqarishda quyidagi pozitsion bosqichlar keng qo'llaniladi⁴:

- **risklarni rejalashtirish va identifikatsiya qilish.** Bunda alohida olingan loyihaning umumiy va individual risklari aniqlanadi va shakllantiriladi.

- **risklarni baholash.** Bunda riskning kelib chiqishi mumkin bo'lgan sabablari, muayyan risk holatida ehtimoliy yo'qotishlar miqdori, loyihani amalga oshirish uchun riskning ta'sir darajasi kabilarga aniqlik kiritiladi.

- **risklarni taqsimlash.** Bunda DXSh loyahasini amalga oshirayotgan davlat va xususiy sherikning xususiyati va imkoniyatidan kelib chiqib, riskning alohida turlari ular o'rtasida taqsimlanadi. Shuningdek, sherikchilikda ishtirok etmayotgan uchinchi tomon – sug'urta kompaniyasi yoki outsorsing tashkilotiga risk o'tkazilishi mumkin.

- **risklarni yumshatish.** Bunda kutilmagan holatlarni oldini olish va yo'qotishlar miqdorini minimallashtirish choralari ishlab chiqiladi.

- **risklarni monitoring qilish.** Bunda identifikatsiya qilingan risklar doimiy ravishda kuzatib boriladi va yangi risklari kelib chiqishi tahlil qilib boriladi⁵.

Risklarni kamaytirishning ushbu pozitsion bosqichlarini kompleks amalga oshirish DXSh loyihalari risklarini tizimli ravishda oldini olish imkoniyatini yaratadi

³ Т.Ю.Руденко, И.И.Пустомолотов «Особенности рисков, их распределения и управления в сфере государственно-частного партнерства»: tatiyana_ru@mail.ru, Россия, Тула, Тульский государственный университет.

⁴Попельных С.Н. «Управление рисками государственно-частного партнерства при реализации инвестиционно-строительных проектов» // Недвижимость: экономика, управление. 2012. №2. С.72–78.

⁵ Родионов А.С. «Управление рисками и риски управления в турбулентной бизнес среде»// Actualscience. 2016. Т. 2. № 4. С. 99-101.

va ularni kamaytirish omillari samarali ishlashini ta'minlaydi. Avvalo, DXSh risklarni kamaytirish omillari xususiy sherikning loyihani amalga oshirishdan manfaatdorligini kafolatlash lozim. Bunda, davlat o'zining moliyaviy va ma'muriy vositalaridan foydalangan holda xususiy sherikning ayrim risklarini o'z zimmasiga olishi mumkin. Xususan, risk yuzaga kelganda davlat tomonidan aktivlarni xususiy sherikdan qaytarib sotib olish, subordinatsiyalangan kreditlar, maqsadli zayomlar ajratish va davlat kafolatlarini berish orqali risklarni kamaytirish choralari ko'riladi. Shuningdek, davlat tomonidan xususiy sherikka muayyan tovar va xizmatlar ko'rsatish uchun to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar ajratish ham riskni kamaytirish va qo'llab-quvvatlashning alohida yo'nalishi sanaladi⁶.

Xalqaro amaliyotda DXSh mexanizmi o'tgan asrning 80 yillaridan boshlab shakllana boshlagan. O'zbekiston DXSh rivojlantirish borasida boshlang'ich qadamlarni tashlayotgan mamlakatlar qatoriga mansub bo'lib, lekin ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston so'nggi yillarda bu sohada ham misli ko'rilmagan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga erishdi. Ayniqsa, 2019 yil 10 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni sohaning huquqiy asosini yaratib berishi bilan birga, o'z navbatida sohaviy munosabatlar qonuniy mustahkamlanishi investor uchun yanada qulay muhit shakllantirib, turli risklarni oldini olishga zamin yaratdi. Mazkur qonunning 27-moddasida davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida xavf-xatarlarning taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda alohida ko'rsatilishi belgilab qo'yildi⁷.

Bugungi kunda investitsion jarayonlarni moliyaviy ta'minlash tizimi barqaror iqtisodiy o'sishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro globallashuv va iqtisodiy raqobat chuqurlashuvi sharoitida samarali moliyalashtirish tizimini yaratmasdan turib investitsion muhitga erishib bo'lmaydi. O'z navbatida, investitsiyaviy loyihalarini moliyalashtirish jarayonlari

⁶ Курбанов С. А., Магомадов Ш. А., Сайдуллаев Д. Д. Риски и их влияние на развитие государственно-частного партнерства в России//Проблемы и перспективы экономического развития регионов: Сб. статей Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 45-летию образования Института экономики и финансов. 2017. С. 82-86.

⁷ <https://lex.uz/docs/4329270> - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

turli yo‘qotishlar va risklarni istisno etmaydi. Shu munosabat bilan, investitsion risklarni oldini olish va ularni ta’sirini minimallashtirishda DXSh tizimi alohida o‘rin tutadi, ya’ni xalqaro amaliyotda davlat-xususiy sheriklik tizimi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishning ustuvor va samarali mexanizmiga aylanib ulgurdi. DXSh o‘zida bir nechta ishtirokchilar faoliyatini uyg‘unlantiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Xususiy sherik tomonidan - investorlar, kreditorlar, davlat tomonidan DXSh tartibotlarini belgilovchi va tashkil etuvchi idoralar, shuningdek, davlat xaridi bilan shug‘ullanuvchi tashkilot ishtirok etadi. Muayyan risklarni baholash va oldini olishda DXSh ishtirokchilar uchun aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan siyosat va tartibotlar belgilanishi, shuningdek, ularning shaffofligi ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, xendjirlash tizimi va bank konsorsiumini tashkil etish orqali risklarni minimallashtirish bilan bog‘liq omillar ham ajralib turadi.

Jamiyatning moddiy farovonligi ko‘p jihatdan ushbu jamiyat iqtisodiyotining qanchalik samaradorligiga bog‘liq. Shu maqsad uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan real aktivlar (yer, bino-inshoot, uskuna, bilim) va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydigan moliyaviy aktivlar (aksiyalar, obligatsiyalar) foydalaniladi. Moliyaviy aktivlarning muvaffaqiyatli aylanmasini ta’minlash uchun real aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish hal qiluvchi o‘ringa ega. Shuning uchun uchta omillar guruhini o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiyotda investitsion jarayon muhimligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: investitsiyaviy salohiyat, investitsion risklar, investitsion muhit. Investitsion salohiyat ishlab chiqarish, innovatsiyalar, moliya, infratuzilma, eksport va boshqalarni o‘z ichiga oladi⁸.

ishonchli	Risk yuzaga					loyihaga ishonchli ta’sir qiladigan keskin risklar
-----------	-------------	--	--	--	--	--

⁸Ермошина Т.В. «Возможности минимизации инвестиционных рисков государственно-частного партнерства» - Интернет-журнал «Наукovedenie», том 9, №5 (сентябрь – октябрь 2017) - <https://naukovedenie.ru>

ehtimoli						
	kam ehtimoli ahamiyatsiz risklar					
kam ehtimoli	Risk yuzaga kelishi oqibatlar					
	ahamiyatsiz	minimal	sezilarli	ahami- yatli	keskin	

2-rasm. DXSh loyihalarida risklar matrisasi⁹

Ta'kidlash joizki, investitsion jarayon nafaqat kapitalning o'sishidan, shu bilan birga ehtimoli bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan iborat bo'ladi. Moliyaviy yo'qotishlar va kapitalni yo'qotish ehtimoli investor uchun ancha xavfli investitsion risk hisoblanadi. Investitsion jarayon risklar bilan uzviy bog'liq jarayon bo'lib, faqat bunda ushbu risklar ta'sirini minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsion muhit mamlakatdagi iqtisodiy muhitning bir qismi sifatida qaralib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi investitsion muhitning qanchalik jozibadorligini umumiy holatda aks ettiradi. Investitsion muhit bilan investitsion risk o'zaro chambarchas bog'liq jarayon hisoblanib, investitsion riskning eng muhim mezoni ham aynan investitsion muhitdir. Investitsion muhit qanchalik jozibador va barqaror bo'lsa, investitsion risk darajasi ham shunchalik past bo'ladi. Investitsion muhit mamlakatda biznes uchun yaratilgan imkoniyatlar, xususan mustahkam qonunchilik bazasi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi, investorlar uchun soliq va boshqa imtiyozlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsion risklarni sug'urta qilish, mehnat resurslari salohiyati, yer va boshqa tabiiy resurslar mavjudligi bilan baholanadi.

DXSh asosidagi investitsion jarayonning investitsion muhiti investitsion jarayonning tizimli qoidalari natijasi bo'lib, investitsion jarayonni tashkil etuvchi va

⁹ Кондратьева У.Д. «Планирование рисков реализации проектов государственно-частного партнерства», Управленческое консультирование. № 6. 2015, стр. 205-215.

harakat keltiruvchi turli investitsion institutlari o‘zaro munosabatlarining asosini belgilab beradi. Bunda, bugungi kunda DXSh samarali investitsion institutga aylanib ulgurganligini qayd etib o‘tish joizdir¹⁰.

Hozirgi vaqtda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat investitsiya siyosatining hal qiluvchi vositasi DXSh hisoblanadi. DXSh loyihalarini amalga oshirish sohasida yetakchi mamlakatlar qatorida Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Avstriya ajralib turadi¹¹. Ushbu mamlakatlarda DXSh mexanizmi nafaqat mahalliy darajada, shuningdek, xalqaro darajada ham keng qo‘llaniladi.

DXSh mexanizmini ko‘rib chiqish asnosida risklarni ham chuqur tahlil qilish taqozo etiladi. Shu maqsadda 1-jadvalda DXSh doirasidagi risklar guruhlanishini ko‘rib chiqish mumkin. Jadvaldan ko‘rib turibdiki, DXSh asosida riskning ko‘chib o‘tishi xususiyati ajralib turadi, masalan, davlat sektori 0 foizli riskni o‘ziga olsa, u holda xususiy sektor 100 foiz riskni oladi. Bundan ko‘rinadiki, odatda risk DXSh bir ishtirokchisiga zimmasiga tushishi mumkin. Shuning uchun, DXShdagi risklarni ikki guruhga siyosiy va iqtisodiy guruhlariga ajratilib tahlil qilinadi.

1-jadval

Davlat-xususiy sherikchilik risklari guruhlanishi¹²

Risklar guruhi	Risk	Mas’ul tomon	
		Xususiy sherik	Davlat sherigi
Siyosiy	Loyihaga siyosiy qarash	+	
	Qonunchilikdagi o‘zgarish		+
	Budjet sikli		+
Iqtisodiy	Bank foiz stavkasi o‘zgarishi		+
	Inflyatsiya		+
	Valyuta kurslari o‘zgarishi		+

¹⁰ Макаров И.Н. «Необходимость совершенствования институциональной среды государственно-частного партнерства в условиях России» // Российское предпринимательство. – 2011. – № 7-1 (187). – с. 74-79. – URL: <http://bgscience.ru/lib/6927/>.

¹¹ Ермошина Т.В. «Возможности минимизации инвестиционных рисков государственно-частного партнерства» - Интернет-журнал «Науковедение», том 9, №5 (сентябрь – октябрь 2017) - <https://naukovedenie.ru>

¹² Ермошина Т.В. «Возможности минимизации инвестиционных рисков государственно-частного партнерства» - Интернет-журнал «Науковедение», том 9, №5 (сентябрь – октябрь 2017) - <https://naukovedenie.ru>

Iqtisodiy subyektlar faoliyatining boshqa turlaridan farqli o‘laroq, DXSh risk darajasi nisbatan yuqoriligi bilan tavsiflanadi¹³. DXSh loyihalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu mexanizmning faol rivojlanishi uchun davlat tomonidan siyosiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishi maqsadga muvofiq. DXSh sohasidagi uzoq muddatli yirik investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda ayniqsa siyosiy risklar birmuncha faollashadi.

Uzoq muddatli davrda mamlakatdagi siyosiy islohotlar yoki qonunchilikdagi o‘zgarishlar yirik loyihaning taqdiriga ham ta’sir o‘tkazish ehtimoli yo‘q emas. Bu singari risklar istalgan davlatlarda bo‘lishi mumkin, lekin bunda davlat va xususiy sherik o‘rtasida murosamali yechimga kelinishi siyosiy riskning ta’sirini yumshatishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy risklar qatoriga bank foiz stavkalarining o‘zgarishi, inflyatsiya va valyuta kurslarining o‘zgarishini alohida ko‘rsatish mumkin. Bank foiz stavkalari o‘zgarishi DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun bank kreditlari jalb qilingan taqdirda bevosita vujudga keladi. Tijorat banklari kamdan kam holatlarda o‘zgarmas stavkalar bo‘yicha uzoq muddatli kreditlar ajratadi. Chunki, tijorat banki uchun uzoq muddatli resurs mablag‘larini birinchidan jalb qilish nisbatan qiyin, va ikkinchidan, uzoq muddatli kreditlar tijorat banki uchun yuqoriroq riskli bo‘lishi mumkin. Bunday holatda, tijorat banklari uzoq muddatli DXSh loyihalariga “suzib yuruvchi” stavkalar bilan kreditlar ajratishga urinadi, ya’ni kredit stavkalari har yili mavjud vaziyatdan kelib chiqib, tuzatishlar kiritib boriladi.

Bu esa DXSh loyihalarini amalga oshirish prognozlarini, moliyaviy oqimlari va xarajatlari rejasiga ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bunday holat birinchi navbatda pul oqimlaridagi o‘zgarishlarda seziladi. Ayniqsa, qarzga jalb qilingan mablag‘lar salmog‘i yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarda kredit bo‘yicha asosiy qarzni qoplash uchun mablag‘lar yetishmovchiligi riski yuzaga keladi. Ushbu riskning oldini olishda esa moliyaviy xedjirlash yordam beradi. Foiz stavkalari o‘zgarishi bilan bog‘liq yo‘qotishlarni sug‘urtalashning eng sodda va umumiy usuli

¹³ Йёскомб Э.Р. «Государственно-частное партнерство: основные принципы финансирования». М.: Альпина Паблишер, 2015. – 457 с.

bu foiz stavkalari o'zgarishiga qarab xususiy sherik ko'rsatayotgan xizmatlari narxlarini qayta ko'rib borilishidir, albatta, davlat sherigi bilan kelishgan holda. Lekin DXShda risklarni kamaytirishning bu usuli davlat organlariga nisbatan nomunosib usul hisoblanadi, chunki xedjirlash usulida foiz stavkalari o'zgarishi bilan xususiy sherik xizmatlar narxini qayta ko'rib chiqish natijasida davlat budjetiga qo'shimcha xarajatlar yukini keltirib chiqarishi mumkin.

DXShda risklarni kamaytirishda xedjirlash usulining yana bir shakli bo'lgan foiz stavkalar svopi usuli alohida ahamiyatga molik. Foiz stavkalari svopi usuli moliya bozorlarida qariyb yarim asrlik tarixga ega bo'lib, risklarni kamaytirishda samarali usullardan biri sifatida keng qo'llanib kelinadi. Hosilaviy moliyaviy instrumentlari bozorlarida ishtirok etuvchi banklar ham svop usulidan keng foydalanadi. Svop usuli boshqa uzoq muddatli hosilaviy foiz instrumentlariga nisbatan DXSh loyihalari uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Lekin shuni inobatga olish maqsadga muvofiqki, foiz stavkasi oshishi riskini svop orqali qoplashda ayrim muammolar kelib chiqishi mumkin: odatda DXSh loyihalari yirik loyihalari hisoblanganidan kelib chiqib, loyihaning moliyaviy jihatlari rasmiylashtirilganidan so'ng ham kredit berilishi davom etadi, svop esa shu paytning o'zida tashkillashtirilishi lozim; ba'zi tijorat banklari svop bo'yicha bitimlarni xususiy sherik uchun nomunosib shartlarda taklif etishi mumkin va h.k. Bu muammolarni esa konsorsium orqali hal qilish mumkin.

Masalan, agar DXSh loyihasini kreditlashda bir nechta bank ishtirok etadigan bo'lsa, ular o'rtasida raqobat vujudga kelishi evaziga svop bitimlari shartlari ham yengillashtiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda DXSh loyihalarini moliyalashtirishda mahalliy banklar faol ishtirok etadi. "Project Finance International" agentligi ma'lumotlariga ko'ra, Royal Bank of Scotland, HSBC Bank, Barclays Bank, Standard Chartered (Buyuk Britaniya) BNP Paribas, Calyon (Fransiya), Bank of Tokyo-Mitsubishi, Mizuho Financial, Sumitomo Mitsui Banking Gorp (Yaponiya), Hupovereinsbank, Westdeutsche Landesbank (Germaniya), ABN Amro, ING (Niderlandiya) va boshqa banklari faoliyatini ajratib ko'rsatish mumkin.

DXSh loyihalarini amalga oshirishda inflyatsiya bilan bog‘liq risklarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu risklar foiz stavkalari o‘zgarishi riskiga nisbatan ancha murakkab ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Inflyatsiya oqibatida narxlarning oshishi DXSh bitimlarining moliyaviy jihatlariga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu birinchi navbatda davlat sektoriga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, ya’ni inflyatsiyaga bog‘liq holda xususiy sherik xizmatlari narxlarining oshishi qo‘shimcha to‘lovlarga olib keladi.

Valyuta kurslari o‘zgarishi ham makroiqtisodiy risklar toifasiga mansub bo‘lib, investitsion loyihani turli valyutadagi mablag‘lar hisobiga moliyalashtirilganda yuzaga keladi. Odatda, DXSh loyihalari bilan bog‘liq bundan moliyalashtirish shakli kamdan kam uchraydi. Chunki, DXSh loyihalari asosan ichki infratuzilmaviy qurilishda amalga oshirilib, bu loyihalarda mahalliy valyutadan foydalaniladi. Shu bilan birga istisno holatlar ham borki, xalqaro aeroportlar, portlar qurilishi va h.k. loyihalar bunga misol bo‘la oladi. Shuning uchun aytish mumkinki, valyuta kurslari bilan bog‘liq risklar DXSh loyihalarini amalga oshirishda nisbatan passiv ta’sirga ega.

Bugungi kunga kelib DXShda investitsion jarayonlarni moliyaviy ta’minlash tizimini rivojlantirish har qanday mamlakat taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, DXSh orqali investitsion jarayonni samarali moliyalashtirishda risklarni to‘g‘ri baholash va joylashtirish lozim. Odatda, DXSh loyihalarida aksariyat risklar xususiy sherik zimmasiga tushishini inobatga olib, xususiy sherikni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash va unga makroiqtisodiy risklar ta’sirini yumshatish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Халимовский Ю.А. «Концессионное соглашение: риски, связанные с составом объекта, и равное положение сторон»// Электронный ресурс // <https://zakon.ru/halimovskiy>. 22.11.2017.
2. Кондратьева У.Д. «Планирование рисков реализации проектов государственно-частного партнерства», Управленческое консультирование. №6. 2015, стр. 205-215.
3. Т.Ю.Руденко, И.И.Пустомолотов «Особенности рисков, их распределения и управления в сфере государственно-частного партнерства»: tatiyana_ru@mail.ru, Россия, Тула, Тульский государственный университет.
4. Попельнюхов С.Н. «Управление рисками государственно-частного партнерства при реализации инвестиционно-строительных проектов» // Недвижимость: экономика, управление. 2012. №2. С.72–78.
5. Родионов А.С. «Управление рисками и риски управления в турбулентной бизнес среде»// Actualscience. 2016. Т. 2. № 4. С. 99-101.
6. Курбанов С. А., Магомадов Ш. А., Сайдуллаев Д. Д. Риски и их влияние на развитие государственно-частного партнерства в России//Проблемы и перспективы экономического развития регионов: Сб. статей Всероссийской научно-практической конференции, посвященной 45-летию образования Института экономики и финансов. 2017. С. 82-86.